



1-rasm. *Haplophyllum latifolium* Kar. Vegetatsiyasining generativ-gullash davri.  
[Ilmiy-amaliy dala tatqiqotlari mobaynida muallif tomonidan tushirilgan fotosurat].

**Xulosa.** Sangardak daryosi havzasi florasida tarqalgan *Haplophyllum* Juss. turkum turlarining botanika-geografik rayonlar bo'yicha taqsimlanishini o'rganildi. *Haplophyllum* Juss. bilan birga o'suvchi turlarning biologik xususiyatlari o'rganildi. Ilmiy adabiyotlar va umumiy tekshiruvlar natijasida toshbaqao't va u bilan o'suvchi o'simlik turlarining dorivorlik xususiyatlari aniqlandi. *Haplophyllum* Juss. Turkumiga kiruvchi turlarning ekologik xususiyatlari o'rganildi va Surxondaryoning boshqa tog' tizmalarida uchrovchi turlar bilan morfologik o'xshashlik xususiyatlari aniqlandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Botirov E.X., Yuldashev M.P., Matkarimov A.D., Malikov V.M. Kumarinы, flavonoidы i lignanы pyati vidov rasteniy roda *Haplophyllum* A. Juss Surgutskiy gosudarstvennyy universitet, Institut ximii rastitelnykh veshchestv im. akad. S.Yu. Yunusova AN RUz700170
2. Djangurazov F.X. Новые mestonaxajdeniya Dionisii Gissarskoy (*Dionysia hissarica* Lipsky) v bassejne r. Sangardak (Zapadnyy Gissar) // Izvestiya Akademii Nauk Tadjikskoy SSR. – Dushanbe: AN TadSSR, 1965. -№1 (18). – S. 43-45.
3. Ibragimov A.J. Flora Surxanskogo zapovednika (xrebet Kugitang):. Dissert. kand. biol. nauk. – Tashkent: 2010. – 160 b.
4. Raunkiaer S. The life form of plants and statisticae plant geography. – Oxford, 1934. □ P. □ 632.
5. Turginov O.T. Boysun botanik-geografik rayoni florasini: Dis. ...kand biol nauk. – Toshkent, 2017. – 296. b.
6. Turginov O.T. Новые dopolneniya dlya flory Yugo-Zapadnogo Gissara // O'zbek biologiya jurnali. – Tashkent: Fan, 2014. Maxsus son. – B. 69-71

7. .

## TEKNOLOGIYA FANIDA ELEKTRON - DIDAKTIK VOSITALARNI QO'LLAGAN HOLDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH

**Shakarov Firdavs Qudratovich**

*Navoiy viloyati Nurota tumani*

*33- umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Texnologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumta'lim maktablari texnologiya darslarida elektron – didaktik vositalarni qo'llagan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etish xususida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *elektron – didaktik vositalar, texnologiya ta'limi, mashg'ulotlar, ko'rgazmalar*

Ma'lumki elektron-didaktik vositalar uchta guruhga bo'linadi: Ta'lim beruvchi uchun vositalar: o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, dars rejasi, ma'ruza matni.

Ta'lim oluvchi uchun vositalar: darsliklar, o'quv qo'llanma, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalar, texnologik xaritalar, topshiriq varaqalari va hokazolar. Dars o'tkazish uchun vositalar: plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar, real vositalar.

Elektron-didaktik vositalarning uchinchi guruhiga kiruvchi elektron-didaktik vositalar va ulardan texnologiya fani darslarida foydalanish metodikasi bilan tanishib chiqamiz.

Elektron-didaktik vositalar va ulardan foydalanish metodikasi haqida gapirar ekanmiz: ta'limning ko'rgazmali qurollari va texnika vositalaridan foydalanishning aqamiyatini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Texnologiya fani jarayonida avvalo natural ob'ektlar — asbob, moslama, tanavor namunalari, tayyor detallar va buyumlar, uskunaning yig'ma sxemalari, uzellari va yaxlit uskuna va hokazolar, ya'ni o'quvchilar qaysi uskunada va nima yordamida ishlashlari kerak bo'lsa, shularning barchasi ko'rgazmali qurollar-elektrondidaktik vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari texnologiya fani jarayonida plakatlar, sxemalar, diagrammalar, modellar, maketlar va boshqa tasviriy ko'rgazmali qurollardan ta'lim vositasi sifatida foydalaniladi. Chizmalar, yozma instruktaj qujjatlari, texnika qujjatlari ustozning ko'rsatishi yoki izoq berishida ko'rgazma xizmatini o'tay olsa, ulardan ham elektron-didaktik vositalar sifatida foydalaniladi. Doskaga chiziladigan rasmlar ham ta'lim vosita bo'lishi mumkin.

Texnologiya fanida diafilm va kinofilmlardan ko'rgazmali qurol sifatida ancha kam foydalaniladi, chunki ular asosan nazariy ta'lim uchun chiqarilgan bo'ladi.

Ta'lim vositalari sifatida ko'rgazmali qurollardan foydalanish qoidalari va metodik usullari asosan quyidagilardan iborat :

-ko'rgazmali kuollarini namoyish qilish usullarni ko'rsatish, ishni bajarishning texnika talablarini, texnologiyasini taqil qilish bilan qo'shib olib borilishi kerak;

-ish va asboblar, moslamalar va hokazolarning namunalarini namoyish qilish uchun ularni maxsus tematik taxtalarga komplektlash maqsadga muvofiqdir, bu esa qiyoslash va umumlashtirish uchun sharoit yaratadi;

-mayda namunalar tarqatiladigan material sifatida foydalaniladi;

-detalni ishlash, yig'ish, montaj qilishni tushuntirish paytida texnologik o'tishlar izchilligida ishlov berilgan (to'plangan, montaj qilingan) namunalardan keng foydalanish lozim;

-naturada yoki bevosita kuzatish imkoni bo'lmagan ob'ektlar yoki hodisalarni (elektr tokining yo'li, molekularning o'zaro ta'siri, kimyoviy apparatlar, dvigatellardagi jarayonlar va hokazolarni) namoyish qilish zarurati tug'ilganida sxematik ko'rgazmali qurollardan foydalanish;

- uskunalar, priborlar, agregatlar, dvigatellar va hokazolardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanilayotganida ularni mumkin qadar ko'zga yaqqol tashlanishi uchun kojuxni, to'siklarni kopqoqni olib tashlab, o'quvchilar ko'proq ko'ra olishlari uchun sharoit yaratish kerak;

- ko'rgazmali qurollar o'quvchilarga yaxshi ko'rinadigan bo'lishini hamisha ta'minlash lozim (namoyish qilinadigan joyni to'g'ri tanlash; yaxshi yoritilgan bo'lishi, o'quvchilarning to'g'ri joylashtirilishi va namoyish qilishining oqilona usullari va hokazo).

Ta'lim jarayonida elektron-didaktik vositalarni qo'llashning asosiy didaktik maqsadi - ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, o'quvchilar bilim darajasini

yuqori bo'lishga erishish bilan birga, o'quvchilar eng kam xato va kamchiliklar bilan o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishlariga erishishdan iborat.

SHunga asosan tajribali o'qituvchi o'z ta'lim berish faoliyatini shunday tashkil qiladiki, bunda u o'quvchilarning xatolari, kamchiliklari va qiyinchiliklarini tuzatishga qaraganda ularning oldini olishga ko'proq e'tibor beradi. Buning uchun ko'proq uchraydigan o'quvchilarning umumiy tipik xatolari, kamchiliklari va qiyinchiliklarni oldindan bilishi lozim. Bular quyidagilardan iborat:

- o'qituvchi ko'rsatgan mehnat usullari va harakatlarining noto'g'ri bajarilishi;

- ishni bajarayotganda o'quvchilar gavdasining noqulay bo'lishi;

- o'quvchilarning qo'llanilayotgan mehnat qarakatlari va usullari mohiyatini tushuntirib bera olmasligi;

- o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish paytida nazariy bilimlarni tadbiq etishda qiynalish;

- o'quv va texnika qujjatlari talablarini bajarishga loqaydlik bilan munosabatda bo'lish;

- o'qituvchi tavsiya qilgan yoki texnologiya kartasida bayon qilingan ishlarni bajarish texnologiyasining buzilishi;

- ishning xususiyati, mazmuni, uni bajarish xususiyatlariga qarab ish va nazorat-o'lchov asboblarni noto'g'ri tanlash;
- o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish sharoiti o'zgarganida o'rganilgan harakatlar, usullar, operatsiyalarni qo'llashda qiynalish;
- ma'lumotnoma materiallaridan foydalana bilmaslik;
- nazorat-o'lchov asboblari va priborlaridan foydalanishda noto'g'ri harakatlar va usullarni qo'llash;
- mehnatda shaxsiy gigiena qoidalariga, shuningdek mayda jarohatlar sodir bo'lgan paytda sanitariya talablariga rioya qilmaslik va hokazo.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Q.T.Olimov, O.A.Abduquddusov, L.P.Uzoqova, M.M.Axmedjanov, D.F.Jalolova. Kasb ta'limi uslubiyoti: O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2006.
2. SHaripov SH.S. va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.
- 3.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA QO'SHIMCHA MASHQLARDAN FOYDALANISH USHLUBLARI

**Uralova Dilnoza Abdirashit qizi**

*Navoiy viloyati Nurota tumani*

*33- umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish darsning samaradorligini oshirishi, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini ortishida katta ahamiyat kasb etishi haqida fikr mulohazalar yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich ta'lim, grammatika, metodika, interfaol usullar, qo'shimcha mashqlar*

Boshlang'ich sinflarda yangi mavzuni mustahkamlashda o'quvchilarga mavzuga oid mashqlar bajarish muhim ahamiyatga ega. Chunki, qoida va mavzuga oid grammatik tushuncha o'quvchilarga o'rgatilgandan so'ng mavzuga oid mashqlar bajarilmasa, o'rgatilgan qoida va grammatik tushunchalarni o'quvchilar mukammal ravishda o'rganib, o'zlashtirib olishlari qiyin bo'ladi.

Demak, yangi mavzuni o'zlashtirishda va o'quvchilar tomonidan mustahkamlashda, albatta, mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarilishi kerak.

O'quvchilarda yangi mavzuni mustahkamlashda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarilganda quyidagi natijalarga erishish mumkin;

1. Nazariya amaliy mashq bilan bog'lanadi;
2. Amaliy mashqlar bajarish orqali o'quvchilarda shakllangan, grammatik tushunchalar mustahkamlanadi;
3. O'quvchilarning mustaqil ravishda mashq bajarish ko'nikmalari shakllanadi;
4. Uyga berilgan mashqlarni qanday bajarish haqida o'quvchilarda ko'nikma paydo bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda yangi mavzuni o'zlashtirish va mustahkamlashda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rin egallaydi. O'quvchilar, dastlab, o'qituvchi nazorati ostida mashqlar bajarishlari lozim. Chunki mavzuga oid mashq ilk marta bajarilayotganda o'quvchilar mashqni notog'ri bajarib qo'yishlari mumkin. Birinchi va ikkinchi mashqlar o'qituvchi nazorati ostida, ba'zan uning ko'magi bilan bajarilsa, mashq to'g'ri bajariladi, mashqdagi so'zlarga savol berib qoidalar chiqariladi, amaliy mashq nazariya bilan bog'lanadi.

Mashqlar bajarishda interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarni darsga bo'lgan munosabatlarini oshiradi, qo'shimcha mashqlar bajarishga qiziqishlarini oshiradi. Asosiysi, o'quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllanib borishi rivojlanadi. O'quvchilar darsda